

MILLIY QADRIYATLAR TUSHUNCHASINING MAZMUN –MOHIYATI

Jalilov Jonibek

Chirchiq davlat pedagogika universiteti magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada milliy qadriyatlar tushunchasining mazmun mohiyati, uning nazariy asoslari hamda milliy qadriyatlarning ahamiyati yoritilgan. Ushbu maqolada qadriyatlar tushunchasi bilan bogliq olimlarning anzariy qarashlari tahlil qilingan, umumbashariy qadriyat, milliy qadriyatlар ochib berilgan.*

Kalit so'zlar: *qadriyat, milliy qadriyat, umumbashariy qadriyat, doston, ta'lif tarbiya.*

Ta'lif oluvchilarning qiziqish va qobiliyatlari-ma'naviy manbalar va xozirgi zamon talablari va ehtiyojlari nazarda tutgan xolda tarbiyachilarning tarbiyalanuvchilar bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o'zaro amaliy va nazariy muloqotida namoyon bo'ladi. Yoshlarni umuminsoniy qadriyatlar asosida uning mohiyatini tushunib yetish kerak. So'nggi yillarda olib borilayotgan yuksalishlarning natijasida ta'lif tizimida bir qator ijobjiy o'zgarishlar, yangilanishlar olib borilmoqda, o'zbekligimizni, o'z milliy g'urur va milliy qadriyatlarni zamonaviy ta'lif jarayoniga singdirilishi kuzatilmoqda. Shuningdek, mustaqillikdan keyingi o'n yilliklar ichidata'lif oluvchi o'quvchi – yoshlar uchun mukammal sharoitlar yaratildiki, bunga yurtimizda qad ko'tarayotgan zamonaviy maktabgacha ta'lif tashkilotlari, maktablar, akademik-lisey va kollejlar hamda ularni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlanishini misol qilib keltirish mumkin. Shulardan ajdodlarimiz qoldirgan madaniy meros va o'zbek xalq pedagogikasida barcha davrlar uchun kerak bo'ladigan ajoyib, ilg'or fikrlar borki, bu fikrlar bugungi taraqqiyotimiz uchun qimmatli qadriyat ekanligi hech birimizga sir emas. Ayniqsa, Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Bobur, Ulug'bek, Ali Qushchi, Behbudiy, Abdulla Avloniy, Fitrat kabilarning millatimiz, yurtimiz taraqqiyotiga qo'shgan xizmatlari katta ekanligini ta'kidlab o'tmoq joiz. Shuningdek, sobiq Sovet tuzumi davrida xalqimizning qadrsizlantirilib yuborilgan insonparvar g'oyalari, ma'naviy, milliy qadriyatlari va ularning afzalliklarini o'rganib chiqish davr talab etadigan asosiy masalalardan biriga aylandi²⁶.

²⁶ Qurbanov T. Milliy g'urur va madaniy meros dialektikasi. -T.: Zarqalam, 2006.- 98 b. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Bolalarni milliy qadriyat ruhidagi tarbiyalash ishlari samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020 yil 10 iyundagi 369-soni Qarori.

Yangi rivojlanish davrini boshdan kechirayotgan mamlakatimiz taraqqiyoti yo'lida xizmat qilish uchun albatta mustahkam e'tiqodga ega bo'lgan, milliy qadriyatlarimizni qadriga yeta oladigan, tariximizni unutmaydigan, milliy g'urur va iftixorga ega bo'lgan, vatanga sadoqatli yoshlarni tarbiyalash bugun zaruratga va u davlatimiz diqqat markazida turgan masalalardan biriga aylandi. O'z-o'zidan ma'lumki, bu masala pedagoglar zimmasiga ham katta ma'suliyat yuklaydi.

Vatan sha'nini xar narsadan ustun qo'ya bilgan, o'z tili, dini, tarixi, milliy qadriyatlari bilan faxrlana bilgan shaxsgina O'zbekistonimizning taraqqiyotiga munosib hissa qo'sha oladi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Bolalar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5 ta muhim tashabbus" ni ilgari surdi. Aynan mana shu 5 ta tashabbus orqali prezidentimiz bolalarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga, ularni jismoniy chiniqtirish, sport sohasida qobiliyatini namayon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratish, aholi va bolalar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va intrnetdan samarali foydalanishni tashkil etishga, xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalariga, bolalar ma'naviyatini yuksaltirish ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish orqali bugungi kun bolalarida, milliy qadriyat tushunchalarini rivojlantirish kerakligini barchamizning oldimizga vazifa qilib qo'ydi. Bu tashabbus na faqat bolalar orasida balki maktabgacha ta'lim tizimida ham o'z o'rnnini topdi. Tashabbus pedagoglarning salohiyatini oshishiga yordam bergen bo'lsa, maktabgacha yoshdagи bolalarda sportga, san'atga, kompyuter savodxonligiga qiziqishlarini ortirdi.

Milliy qadriyatlarimizning tarbiyaviy ta'sirini oshirish orqali maktabgacha yoshdagи bolalarda ushbu tushunchalarini takomillashtirishning nazariy asoslarini yaratish yo'lida ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar olib borish bugungi kun talabidir. Inson ma'naviyatida eng qadrlanadigan tuyg'ulardan biri bu milliy g'urur, vatanparvarlik va milliy qadriyat tushunchalaridir.

Milliy g'urur, milliy qadriyat, vatanga e'tiqod to'g'risida so'z yuritishdan oldin "vatan", "milliy qadriyat" va "e'tiqod" tushunchalarining mazmuni, mohiyati haqida to'laroq tasavvurga ega bo'lmoq darkor.

Vatan tushunchasining ilmiy, pedagogik, falsafiy, badiiy, jihatlariga to'xtaladigan bo'lsak, 1981 yilda nashr etilgan "O'zbek tilining izohli lug'atida vatan tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: kishi tug'ilib o'sgan va o'zini uning fuqarosi hisoblagan

mamlakat; kishining tug‘ilib o‘sgan o‘lkasi, shahri yoki qishlog‘i; turar joy, boshpana, maskan, uy sifatida talqin etilgan²⁷.

O‘zbekiston milliy ensiklopediyasida esa, vatan tushunchasiga shunday ta’rif keltiriladi: “Vatan - kishilarning tug‘ilib O‘sgan joyi, yurti, mamlakati; tarixan muayyan xalqqa tegishli hudud hamda uning tabiatи, aholisi, o‘ziga xos taraqqiyoti, tili, madaniyati, turmushi va urfodatlari majmui”²⁸. Vatan ona kabi muqaddas. Vatan oldidagi qarzdorlik tuyg‘usi, mas’uliyati har bir etuk insonga xos xususiyatdir. Vatanni sevish milliy qadriyatda namoyon bo‘ladi.

Darhaqiqat, vatan bir kishining mulki emas, u o‘tib ketgan ajdodlar yurti, o‘sibulg‘ayayotgan farzandlarimiz, kelajakda dunyoga keladigan avlodlarning mulki - vatan shu yurtda yashab turgan har-birimizning mulkimizdir. Demak, yer yuzida millat uchun vatan mavjud ekan, xalqda vatan tuyg‘usi doimo, barcha davrlarda mavjud bo‘laveradi.

Olmoniyada yashovchi vatandoshimiz Ismoil Minhojining vatan deya chekkan iztiroblarini uning yozgan maktubida ko‘rishimiz mumkin: “Inson qayerda bo‘lmasin, qorin tuydirish uchun bir parcha non kifoya. Lekin vatanning o‘rnini hech narsa bosa olmaydi! Chet ellarda yurgan odamga ana shu aziz vatan etishmaydi! Bunday odam ruhan ezilgan bo‘ladi, uni hech narsa qiziqtirmaydi va ko‘nglini hech narsa ko‘tara olmaydi. Inson elidan, halqidan ayrilsa, tirik murdaga aylanadi. Bu haq gap. Odam bolasini ruhan ko‘taruvchi, qo‘llab-quvvatlovchi vatan ekan. Zotan baxt vatandadir. Yunon afsonasida tug‘yonidan ayrilgan ot jafo chekkani kabi inson ham elidan ayrilsa, undan besh battar holga tushadi. Bizning jismimiz chet ellarda-yu, lekin yuraklarimiz vatanda, qalbimizda vatan mehri so‘ngani yo‘q”²⁹.

Yuqoridagi dil so‘zlaridan ko‘rinib, turibdiki, vatan ayri qilib bO‘lmas his-tuyg‘u, uning qadriga bizdan ko‘ra ko‘proq musofirlikda yashayotgan vatandoshlarimiz yetishsa ajab emas.

A.Avloniyl o‘zining “Turkiy guliston yohud axloq” asarida, A.Ibrohimov, X.Sultonov, N.Jo‘rayevlarning “Vatan tuyg‘usi”³⁰ kitobida, mashhur tatar olimi Rizouddin Ibn Fahriddinni “Ilmi axloq” kitobida, Hamid Olimjonning “O‘zbekiston”, Abdulla Oripovning “O‘zbekiston Vatanim manim”, “Men nechun sevaman O‘zbekistonni”, Erkin Vohidovning “O‘zbegim”, Barot Boyqobilvning “Xamsa”, “O‘zbeknoma”³¹ asarida, Tursunoy Sodiqovaning “Mehr qolur” kitobida vatan, vatan tuyg‘usi, qadriyat, milliy qadriyat

²⁷ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. -M.: Rus tili, Tom 1, 1981. - 631 b.

²⁸ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. -M.: Rus tili, Tom 1, 1981. - 631 b

²⁹ Qurbanov T. Milliy g‘urur va madaniy meros dialektikasi. -T.: Zarqalam, 2006.- 98 b.

³⁰ Ibrohimov A., Sultonov X., Jo‘raev N. Vatan tuyg‘usi. - T.: O‘zbekiston, 1996.- 443 b.

³¹ Ibrohimov A. Bizkim O‘zbeklar. -T.: Sharq, 1999. - 377 b.

tushunchalarining mohiyatini ilmiy-nazariy hamda badiiy nuqtai nazardan talqin etganlar. Ya’ni yuqoridagi asarlarning barchasi ham bolalarga o‘qib berilmasada, ularni mutaola qilgan peadgoglarda albatta milliy qadriyat hissi jo‘sh uradi va shu jo‘shqinlik bilan bolalarga asar mazmunini yetkazib berishda turli kompleks faoliyatlarga yuzlanadilar.

Vatan - bu biz tug‘ilib, voyaga etayotgan zamin, bu biz qadrlaydigan qadriyatlarimiz, bu mehnatkash halqimiz, mahalla, ota-onas, oila, qo‘ni-qo‘shnilarimiz, bu ajdodlarimizdan meros qolgan jonajon O‘zbekistonimiz.

Vatan, milliy qadriyat, vatanga e’tiqod so‘zlarini doimo biri-ikkinchisini to‘ldirishi, ifodalashini inobatga olgan holda, “milliy qadriyat” tushunchasini mazmun-mohiyatini tushunib olish lozim.

“O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”da **milliy qadriyat** - kishilarning ona-yurtiga, O‘z vataniga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha bo‘lib, milliy qadriyat barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiy bo‘lgan asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg‘u, ma’naviy qadriyatlarning biri bo‘lib hisoblanadi. Tarixiy jihatdan milliy qadriyat kishilarning yashab turgan vatanlari taqdiri bilan bog‘liq yillar davomidagi ijtimoiy rivojlanish, xar bir xalqning o‘zi yashayotgan hududning daxlsizligi va mustaqilligi yo‘lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg‘ular jamlanmasi hamdir. Bu xis - tuyg‘ular vatanning o‘tmishi va hoziri bilan faxrlanishda, manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo‘ladi³².

Vatan manfaati, qadr-qimmatini, taqdirini, istiqbolini qancha ko‘p anglatilsa, kishilarda milliy qadriyat tuyg‘usi shuncha baland bO‘ladi. Har bir shaxsdagi milliy qadriyat tuyg‘usi jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq. Haqiqiy milliy qadriyat millat, vatan manfaati bilan yashash, uning istiqboli, manfaati yo‘lida mehnat qilish hamda kurashishdir³³.

Vatanga e’tiqod, vatan ravnaqi yo‘lida xizmat qilish, xavf tug‘ilganda vatan uchun jonini fido qilish xalqimizning azaliy e’tiqodlaridan biridir. Bu haqda “To‘maris”, “Go‘ro‘g‘li” haqidagi afsonaviy asarlarimiz borligi bilan faxrlanishimiz, Jaloliddin Manguberdining qaxramonliklarini bugungi kun ertaklariga aylantirishimiz lozim.

Juda ko‘p olimlar, shoir va mutafakkirlar ham e’tiqod tushunchasiga o‘z tariflarini bergenlar. Chunonchi, rus mutafakkiri E.V.Lebedevning fikricha: “e’tiqod – murakkab ma’naviy uyushma bo‘lib, shaxsni anglab olingan ichki pozisiyasidir, uning bisotida mavjud bo‘lgan bilimlari asosida vujudga kelgan va ma’lum bir ma’noda, insonning harakat qilishi uchun turtki berib turuvchi qudratdir”.

³² O‘zbek tilining izohli lug‘ati. -M.: Rus tili, Tom 1, 1981. - 558 b.

³³ Qurbanov T. Milliy g‘urur va madaniy meros dialektikasi. -T.: Zarqalam, 2006.- 98 b.

Mashhur shoirimiz A.Oripov ham O'zining "Ehtiyoj farzandi" kitobida "E'tiqod - insonning shaxs sifatida shakllanishi, xulqi-odobi, uning faoliyatida g'oyalar yuzaga kelishi bilan xarakterlanadi"³⁴ - deb aytib o'tishi bilan birgalikda, "Har bir g'oya esa chuqur bilish, anglash va hayotda o'sha narsaga intilish, hohish-istikasida e'tiqodga aylana boradi. U shaxsnинг shakllanishida murakkab intelektual-emosional jarayon natijasida insonning hayotiy tajribasi, O'zlashtirgan bilimi va g'oyalari asosida yuzaga keladi, inson irodasini mustahkamlashga xizmat qiladi. E'tiqod inson chuqur anglagan, fikrlagan, his-hayajon bilan boshidan kechirgan, har qanday sharoitda ham qattiq turib himoya qiladigan bir kuchdir" - deb ta'kidlab o'tadi.

Demak, vatan, milliy qadriyat, vatanga e'tiqod tushunchalari bir-biri bilan O'zaro aloqadorlikda, chambarchas bog'langan holda, kishilar faoliyati jarayonida O'zligini namoyon etadi. Biri ikkinchisini to'ldirib boradi. Vatansiz milliy qadriyatni, milliy qadriyatsiz vatanga e'tiqodni tassavvur etib bo'lmaydi. Bu esa quyidagi ko'rinishda aks etgan:

1.1-rasm



Vatanni dildan sevmoq, manfaati yo'lida butan qilib, qobiliyat, kuchquvvatini safarbar qilmoq milliy qadriyat alomatidir. Xuddi shuning uchun ham milliy qadriyat yuksak e'tiqod, vatan va millat oldidagi mas'uliyat, yuksak burchni anglashdir. Ajdoddlardan avlodlarga o'tib kelayotgan "Vatanni sevmoq iymondandir"³⁵,-degan hadis zamirida ham xuddi shunday mazmun mujassam.

Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan yuqoridagi asarlar bugungi kunda nafaqat yurtimizda balki dunyoda mashhurdur. Ushbu mashhurlik ham insonlarning milliy qadriyat namunalaridan biridir.

Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan odob-o'gitlar, pand-nasihatnomalarda, diniy falsafiy kitoblarda milliy qadriyatga keng o'rin berilgan. Keyingi yillarda yurtimizda bo'layotgan o'zgarishlar tufayli bu manbalarni o'rganishga va ta'lim-tarbiya jarayoniga tadbiq etishga e'tibor kuchaydi. Ayniqsa, asrlarga tengdosh yozma bitiklar va xalq og'zaki ijodida ya'ni afsonalar, ertaklar, rivoyatlar, maqollarda yuksak insoniy tuyg'ular

³⁴ Qurbanov T. Milliy g'urur va madaniy meros dialektikasi. -T.: Zarqalam, 2006. - 98 b.

³⁵ Qur'oni karim oyatlарининг таржимаси Shayx Abdulaziz Mansurning "Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va izohlari" kitobidan olindi. T.: "Toshkent islom universiteti". 2009 й. Zumar surasi. 9- oyat.

ulug‘lanadi. Bu manbalarning yosh avlodni milliy qadriyat va vatanga e’tiqod ruhida tarbiyalashda ahamiyati nihoyatda kattadir.

Milliy qadriyat tushunchalarini kompleks faoliyatlarda takomillashtirishni pedagogik ilmiy muammo sifatida tahlil etar ekanmiz, eng avvalo, Zardo‘shtiylik dinining muqaddas kitobi hisoblanmish “Avesto”ning asrlar davomida insonlarni poklikka, ilm egallashga, mehnatsevarlikka, tabiatni asrash kabi insonparvarlik g‘oyalariga da’vat etib kelganligiga guvoh bo‘lamiz. Bu bitikda vatanni sevish, o‘zлari yashab turgan zaminni asrab-avaylash, ona-zaminga e’tiborli bO‘lish, milliy qadriyat, vatanga e’tiqod haqidagi g‘oyalar ham mavjudki, shubhasiz bu g‘oyalar mакtabga tayyorlov yoshdagi bolalarni milliy qadriyat tushunchalarini shakllantirishda katta ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, bu yozma bitikda inson oila bo‘lib yashashi, farzandlar tarbiyalab voyaga etkazishi, rizz va nasiba hisoblanmish sigir saqlashi, shu oilani qO‘riqchisi itlarni parvarish qilish kabi oila an’analarini davom ettirish g‘oyalari ilgari suriladi. Demak “Avesto”da oila muqaddas sanalgan, oila esa vatan demakdir, vatandagina insonlar baxtiyor yashaydilar³⁶.

Xalqimiz durdonasi hisoblanmish “Avesto”ning bugungi davrimiz uchun qadriyat hisoblanishining boisi ham undagi g‘oyalarning insonparvarligidadir.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagoglari “Avesto” va boshqa tarixiy kitoblarni O‘qish hamda tarix xaqida olgan bilimlarini mакtabga tayyorlov yoshdagi bolalarda milliy qadriyat tushunchalarini shakllantirishda qo‘s Shimcha manbaa sifatida foydalanishlari foydadan holi emas.

O‘z vatani ozodligi yo‘lida qo‘liga qilich olib, dushmanqa qaqshatqich zarbalar keltira olgan yana bir ajdodimiz Xorazm mard o‘g‘loni Jaloliddin Manguberdining hayoti va vatanga e’tiqod yo‘lidagi faoliyatini O‘rganish maktabga tayyorlov yoshdagi bolalarni milliy qadriyat, vatanga e’tiqod, ona vatanga cheksiz muhabbat, g‘urur - iftixon, vatan, xalq tinchligi yo‘lida jon fido etish, insonparvarlik kabi qarashlarini tarkib toptirish va takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Jaloliddin Manguberdi o‘zining butun hayoti davomida o‘z xalqi va vatanini sevdi, tarixi va madaniyatini yuksak qadrladi, ona tabiat go‘zalliklarini qalban his qildi, ardoqladi. Shu o‘rinda adibimiz Ro‘zimat Yokubovning bir rivoyatini keltirish joiz: bir kuni hayqirib oqayotgan Jayxunga kesak otgan ukasining chekkasiga tarsaki quyib yubordi, - suvgaga kesak otmoq, tuproqqa tupurmoq gunohi azim, sen Xorazmni onang o‘rnida ko‘r!

Bu rivoyat orqali Jaloliddin Manguberdining vatanga, Ona zaminga qo‘yan mehrining, e’tiqodining naqadar chuqur ekani ko‘rinib turibdi. Jaloliddin bolaligiga xos yuqorida

³⁶ Mahmudov T. Avesto haqida. - T.: Guliston, 2000.- 63 bet.

keltirilgan xulq-atvor, odob axloq ko‘rinishlari, go‘zal fazilatlar hozirgi va kelgusi avlod uchun namuna sifatida xizmat qilishi tabiiy. Uning bu kabi fazilatlari; tanlagan yo‘lidan qaytmasligi, ma’rifatparvarligi, vatanni qalban sevishi, islomni, ustozlarini qadrlagani, mardligi, halolligini targ‘ibot qilish, yosh avlod uchun har tomonlama namunali inson ekanini ko‘rsatish bugungi kunimiz talabidir.

Qadriyatlar har bir millatning o‘tmishi, buguni va kelajagini oynadek ko‘rsatib turuvchi eng muhim omillardan biri. Olimlar qadriyatlarni milliy, diniy, mahalliy, mintaqaviy va umuminsoniy kabi bir qator turlarga shartli bo‘ladilar³⁷.

Milliy qadriyatlar har bir xalqning tarixiy taraqqiyoti, ma’naviy hayoti va madaniy o‘zligining ifodasidir. Ular jamiyatning ijtimoiy ongida chuqur ildiz otgan, avlodlar tajribasi orqali sayqallanib kelgan, har bir millatning o‘ziga xosligini belgilovchi madaniy-me’naviy ko‘rsatkichlar majmuasini tashkil etadi. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov milliy qadriyatlar haqida shunday degan edi: “Milliy qadriyatlar biz uchun shunchaki tarixiy meros emas, balki keljakka ishonchimizni mustahkamlovchi ma’naviy tayanchdir”.

Milliy qadriyatlar tarkibiga til, din, urf-odat, an’ana, axloqiy va estetik mezonlar, me’moriy yodgorliklar, xalq og‘zaki ijodi, urush va mehnat qahramonlari haqida hikoyalar, shuningdek, tarixiy xotira kabi boy ma’naviy-ma’rifiy omillar kiradi. Ular avlodlar davomiyligini ta’minlab, har bir xalqning o‘z tarixiy yo‘lini anglash, saqlash va uni keljak avlodlarga yetkazishda vositachilik vazifasini bajaradi.

Milliy qadriyatlar doimo ijtimoiy ong, madaniyat va mafkura bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanadi. Ular har bir xalqning mentaliteti, turmush tarzi, tabiiy muhit va tarixiy sharoitlariga mos tarzda shakllanadi. Shu bois ham, qadriyatlar har doim milliy o‘zlikning asosi sifatida qaraladi. Ma’naviyatshunos olim A. Asqarov bu borada quyidagi fikrni bildiradi: “Milliy qadriyatlar millatning ruhiy holati, uning dunyoqarashi, orzu-umidlari va or-nomusini aks ettiruvchi eng nozik ruhiy qatlamadir”³⁸.

Milliy qadriyatlarning mohiyati, avvalo, ularning ijtimoiy funktsiyasi orqali namoyon bo‘ladi. Bu qadriyatlar nafaqat madaniy yodgorlik yoki tarixiy meros sifatida, balki yosh avlodni vatanparvarlik, g‘urur, mehnatsevarlik, halollik, bag‘rikenglik kabi fazilatlar ruhida tarbiyalashda faol xizmat qiladi. Xususan, o‘zbek xalqining qadimiy dostonlari, maqollari, xalq o‘yinlari va urf-odatlarida ushbu qadriyatlarning mazmuni chuqur mujassam.

Zamonaviy globallashuv sharoitida milliy qadriyatlar ayniqsa muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bir tomonidan, xalqaro madaniy almashinuv jarayonlari milliy madaniyatga yangi omillarni olib kirayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, milliy qadriyatlarni saqlash va

³⁷ Ochilova B. Qadriyatlar falsafasi. Jizzax 2013. B-23

³⁸ Asqarov, A. (2004). Milliy g‘oya: asosiy tushunchcha va tamoyillar. Toshkent: O‘zbekiston

rivojlantirish, yosh avlodni o‘z ildizlariga sodiq tarzda tarbiyalash zaruratini kuchaytirmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Milliy qadriyatlarimiz – bu bizning bebaho boyligimiz va mustahkam tayanchimizdir. Ularni asrab-avaylash – har birimizning muqaddas burchimizdir”³⁹.

Shu bois, milliy qadriyatlar faqat o‘tmish yodgorligi emas, balki kelajak taraqqiyotining ma’naviy poydevori sifatida qaralishi kerak. Ularning har bir avlod ongida mustahkam o‘rin egallashi, xalqning birdamligi, ijtimoiy barqarorligi va madaniy yuksalishining kafolati hisoblanadi.

Adabiyotlar ro’yxati

1. Qurbanov T. Milliy g‘urur va madaniy meros dialektikasi. -T.: Zarqalam, 2006.-98 b. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Bolalarni milliy qadriyat ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020 yil 10 iyundagi 369-sonli Qarori.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. -M.: Rus tili, Tom 1, 1981. - 631 b.
3. Qurbanov T. Milliy g‘urur va madaniy meros dialektikasi. -T.: Zarqalam, 2006.-98 b.
4. Ibrohimov A., Sultonov X., Jo‘raev N. Vatan tuyg‘usi. - T.: O‘zbekiston, 1996.-443 b.
5. Ibrohimov A. Bizkim O‘zbeklar. -T.: Sharq, 1999. - 377 b.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. -M.: Rus tili, Tom 1, 1981. - 558 b.
7. Qurbanov T. Milliy g‘urur va madaniy meros dialektikasi. -T.: Zarqalam, 2006.-98 b.
8. Qur’oni karim oyatlarining tarjimasi Shayx Abdulaziz Mansurning “Qur’oni karim ma’nolarining tarjima va izohlari” kitobidan olindi. T.: “Toshkent islom universiteti”. 2009 y. Zumar surasi. 9- oyat.
9. Mahmudov T. Avesto haqida. - T.: Guliston, 2000.- 63 bet.
10. Ochilova B. Qadriyatlar falsafasi. Jizzax 2013. B-23
11. Asqarov, A. (2004). Milliy g‘oya: asosiy tushuncha va tamoyillar. Toshkent: O‘zbekiston
12. Mirziyoyev, Sh. M. (2021). Yangi O‘zbekiston – yangi islohotlar makoni. Toshkent: O‘zbekiston.

³⁹ Mirziyoyev, Sh. M. (2021). Yangi O‘zbekiston – yangi islohotlar makoni. Toshkent: O‘zbekiston.